

**KASBGA YO'NALTIRISH FAN DASTURLARI ASOSIDA TURLI FAN VA SOXALAR  
BO'YICHA O'QUVCHILARNI TAYYORLASH**

Xamraqulov Akromjon Adxamjon o'g'li

*oriental nodavlat instituti: menejment (ta'lif menejmenti) mutaxassisligi magistranti*

998-90-210-12-99

Kasb-hunar tanlash uchun o'quvchi o'z imkoniyatlarini baholay olish ko'nikmasiga, ya'ni aqli, qiziqishi har xil kasblar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axborot va yangiliklardan xabardor bo'lib borishi zarur.

O'zbekiston Respublikasida "Ta'lif to'g'risida"-gi qonunini "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni amalga oshirish va Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 9-iyuldag'i «2004-2009 yillarda maktab ta'lifini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 372-sonli qaroriga asosan o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis samaradorligini oshirish, ularni psixologik-pedagogik tashxis qilishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish, amalga tatbiq etish maqsadida Xalq ta'lifi vazirligining 2006-yil 17-martda «O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis Markazining tashkiliy va metodik asoslarini takomillashtirish to'g'risida»gi 60-sonli buyrug'i asosida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning zamon talablari darajasida, ilmiy-metodik kengashi, o'quv meyoriy hujjatlarini yangi tahriri ishlab chiqildi.

Shuningdek, o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etishda, ushbu jarayonni ta'lif muassasalarida amalga oshiruvchi o'qituvchilar, pedagog xodimlar hamda aholi o'rtasida (mahalla, ota-onalar) hamkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Bu ishlarning zamirida, o'quvchi yoshlarni kasbiy qobiliyati va layoqatini aniqlash asosida ta'limning keyingi turi va bosqichiga yo'naltirish, kasbiy qarorlarini shakllantirishga qaratilgan yaxlit faoliyat jarayonida ularni to'g'ri kasb-hunar tanlashlarini to'laqonli yo'lga qo'yish alohida ahamiyatga egadir. O'quvchilarni kasbiy qarorlarini shakllantirish – bu o'quvchi-yoshlarda ta'lif-tarbiya jarayonida o'zlashtirilgan nazariy bilimlarining amaliyotda malakali mutaxassislar ko'magida, kasbiy qiziqish va layoqatiga ishonch hosil qilish, kasbiy vazifalarni qo'llay olish tajribasini hosil qilish, kasbiy madaniyat sifatlari (kasbiy idrok, kasbiy bilimdonlik, kasbiy tafakkur, kasbiy salohiyat va hokazo)ni tarbiyalashga yo'naltirilgan izchil, tizimli, uzlusiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan pedagogik faoliyat jarayonidir. Chunki, o'quvchilarni kasb-hunarga to'g'ri yo'nalgaligini tashkil etish murakkab, uzoq muddatli va indevedual shug'ullanishni talab etadigan jarayon hisoblanadi. Uning metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi ko'zlangan maqsadga erishish muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Mayjud obyektiv va subyektiv omillardan unumli foydalana olish ham o'quvchilarda kasbhunarni to'g'ri tanlashlarishga hissa qo'shadi.

Kasb-hunarga yo'naltirishni tashkil etishga nisbatan texnologik yondoshuv – bu o'quvchi – yoshlari tomonidan o'zlashtirilgan nazariy kasbiy bilimlarni amaliy ko'nikma va malakaga aylantirish, ularda faol kasbiy yo'naltirishni tashkil etish tajribasini yuzaga keltirish hamda kasbiy qobiliyat va moyilliklari asosida kasbiy qarorlarini rivojlanirishga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish majmui bo'lib xizmat qiladi. U quyidagi tarkibiy tuzilmaga asoslanadi.

Keltirilgan tuzilma mohiyatidan anglanadiki, o'quvchilarini bo'lajak kasbiy shakllantirishni qaro topishiga ijodiy yondoshuv asosida tashkil etish birinchi navbatda muayyan kasbiy mavzu bo'yicha kompyuterda programmalashtirilgan dars uyushtirilishi. Nazarda tutilgan darsning o'tkazilishidan ko'zlangan asosiy maqsad, o'quvchilarini ta'limni keyingi turi va bosqichiga ongli ravishda to'g'ri jalb etish hamda kelajagi haqida tasavvur hosil qilish, ushbu maqsadga erishish imkoniyatini berish uchun ijobiy hal etilishi lozim bo'lgan vazifalarning qat'iy, aniq va ravshan belgilab olinishi, dars mazmuni (ssenariysi)ning puxta ishlab chiqilishi, shakllantirilgan mazmun-mohiyatini to'laqonli ochib berishga xizmat qiluvchi maqbul shakl, metod va vositalarning to'g'ri tanlanishini taqazo etadi. Ilkinchidan, dars jarayonining asosiy subyekti sifati kasb-hunarga yo'naluvchining shaxsi namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqdir. O'tkazilayotgan darsning umumiyl natijasiga mas'ullik kasbga yo'naluvchi va amaliyotchi psixologlar zimmasiga yuklanishi darkor.

Shunday sharoitdagina ular shaxsiy imkoniyatlarini namoyon etish, o'z fikrini erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Zero, kasbiy pedagogik texnologiya (kasblarni kompyuterda programmalashtirilgan versiya)larining afzalligi o'sib kelayotgan yosh avlodning mustaqil fikr egasi, erkin, shuningdek kelajagi haqida aniq tasavvurga ega shaxs bo'lib tarbiyalanishlarini ta'minlashga yo'naltirilganligidadir.

Kasb-hunarga yo'naltiruvchi (o'quvchi)ning roli ushbu sharoitda o'quvchilar faoliyati bo'lajak kasbiy shakllantirishini qaror toptirishi, ma'lum yo'nalishga solishi ularning kasbiy yo'nalishi, qobiliyat va moyilliklarini to'g'ri boshqarish, zarur o'rnlarda maslahat berishdan iborat bo'lib, u eng avvalo, o'quvchilarini kelajakda tanlagan kasblarini fidoiylari, ta'limning keyingi turi va bosqichiga to'g'ri, to'liq qamrab olish ishiga mas'uldir.

O'zbekistonda zamonaviy bozor iqdisodiyotini shakllantirish borasida xalq xo'jaligining barcha sohalari va bo'g'inlarining korxonalarini o'rtasidagi raqobat asosida jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Bu korxonalardagi raqobatlar fan-texnika, texnologiya rivoji jadallahishiga, ya'ni fan va texnika taraqqiyoti tezlashuviga olib kelmoqda. Shubu vazifani to'laqonli amalga oshirish uchun esa albatta ta'limi tizimida raqobatga bardosh bera oladigan mutaxassis kadrlar tayyorlash vazifasi turadi.

Mazkur vazifalarni to'la-to'kis hal etish maqsadida mamlakatimizda 1997-yil 29-avgustda "Ta'lim to'g'risidagi" qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuqori malakali, yuksak ma'naviy va axloqiy talabalarga javob bera oladigan kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratishga qaratildi.

Yangi milliy dasturga o'tish, tayanch ta'limi bosqichini tamomlagan o'quvchiga o'z xohish va intilishlariga ko'ra ikki tipdag'i ixtisoslashgan ta'lim muassasalarida majburiy-ixtiyoriy tartibda ta'limni davom ettirish imkonini yaratdi.

Mazkur ta'lim muassasalari o'quvchilarga o'z qobiliyatları, qiziqishlaridan kelib chiqib, kasb-hunar tanlash yo'nalishida olib boriladigan maxsus ta'lim yo'nalishini erkin tanlash imkoniyatini beradi.

Bugungi kunda aynan mazkur ta'lim muassasalari orqali yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini to'g'ri tashkil etish, uni aniq mexanizmini yaratish va faoliyatini yuritishga ehtiyoj sezilmoqda.

Kasb-hunarga yo'naltirish deganda yoshlarni qiziqishlari, moyilliklari va shakllangan qobiliyatlariga ko'ra va xalq xo'jaligi, umuman, jamiyatning mutaxassislarga ehtiyojini hisobga olib ishga joylashtirishni optimallashtirishga qaratilgan psixologik-pedagogik va tibbiy tadbirlar majmui tushuniladi. Kasb-hunarga yo'naltirish ta'lim muassasalari tarbiyaviy ishining uzviy bir qismi sanaladi, zero kasb-hunar tanlash o'zining ijtimoiy foydali mehnatda ishtiroki zaruriyatini anglash sifatida shaxs shakllanishing muhim shartidir.

Mazkur mavzuni tahlil etishda o'zining kasbiy kelajagini belgilashni shaxsning o'z hayot yo'lini faol qidirish jarayoni sifatida tushunishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Psixologik-pedagogik nuqtai nazardan qaralganda kasbiy o'z-o'zini belgilash jarayoniga ta'sir etuvchi omillarning 4 ta guruhi farqlanadi.

**Birinchidan**, ijtimoiy-iqdisodiy omillar. O'z rivojlanishining turli bosqichlarida hayotga kirib kelayotgan jamiyat yoshlariga o'z kuchini sarf etish uchun turli sohalarni taklif etadi. Bu birinchi galda, kasb-hunarlar spektri, ularning o'zgarishi va rivojlanishi istiqbollari, jamiyatning u yoki bu mutaxassislarga ehtiyojiga taalluqli.

**Ikkinci** guruhga ijtimoiy-psixologik omillarni kiritish mumkin. Bu, eng avvalo, insonning maktab ta'limigacha va undan so'ng o'sadigan va tarbiyalanadigan ijtimoiy muhitdan iboratdir. Ijtimoiy muhit ta'sirida shaxsning qadriyatlarni anglash kasblarning turli guruhlarga nisbatan ma'lum munosabati, o'ziga xos maqsadlar, stereotiplar va ustakovkalari shakllanadi.

**Uchinchi** guruhini asl psixologik omillar tashkil etadi. Bu shaxsiy qiziqishlar va moyilliklar, umumiylar, maxsus qobiliyatlar, aqliy va shaxsiy rivojlanish darajasi, xotira, diqqat, motorika va shu kabi xususiyatlari.

**To'rtinchi** guruh ham o'quvchining individual-psixofiziologik xususiyatlaridan iborat. Ular psixik jarayonlar kechishning dinamik-tavsiflarini belgilaydi va faoliyatning ma'lum ko'rinishlarini bajarishga ko'ra moslashuvchi, yo uni qiyinlashtiruvchi turli temperamentlar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, kasb-hunarga yo'naltirishni ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik-pedagogik va tibbiy-fiziologik vazifalar majmui deb tushunmoq lozim, ularning maqsadi esa, har bir shaxsning individual xususiyatlari va jamiyatning kadrlar talablariga muvofiq keladigan kasbiy o'z-o'zini anglashni shakllantirishdir. Psixologik-pedagogik vazifalar ichida birinchi

galda professional axborot berish va kasbiy maslahat tilga olinadi. Kasb-hunarga yo'naltirish maqsadini olib borishda ikki bosqich:

- Dastlabki;
- Chuqurlashtirilgan individual kasbiy maslahat bilan farqlanadi.

Dastlabki kasbiy maslahat – guruhda olib boriladigan maslahat, uning jarayonida kasb tanlash qoidalariqa o'rgatish, kasb-hunarlar xilma – xilligi, qiziqishlar, moyilliklar haqida axborot berish amalga oshiriladi. Dastlabki kasbiy maslahat natijasi kasbiy reja shakllanishida yordam ko'rsatish, tanloving ongliligi va mas'uliyatliligi darajasini oshirish sanaladi.

Kasbiy maslahatning maqsadi o'quvchilarni kasbiy o'z-o'zini belgilash tahlili asosida u yoki bu ta'lif muassasasida o'qishni davom ettirish emas, balki, bir tomondan, o'quvchining qiziqishlari, moyilliklari va imkoniyatlariga mos keladigan, boshqa tomondan respublika xalq xo'jaligi tizimi uchun kerakli mehnat faoliyatini tanlashga yo'naltirishdan iborat.

Chuqurlashtirilgan individual kasbiy maslahat insonni har tomonlama: uning moyilliklari, qiziqishlari, sog'ligi va jismonan rivojlanishi, diqqat, tafakkuri darajasi va strukturasi, qo'l mohirligi va harakatlari koordinatsiyasi, xarakter xususiyatlarini chuqur o'rGANISHGA asoslanadi. Bunda o'qituvchilar va ota-onalarning fikri, ta'limning muvaffaqiyatliligi va referent guruhi xususiyatlari hisobga olinadi. Mazkur ma'lumotlarni umumlashtirishga nafaqat kasb-hunarga yo'naltirish maqsadida, balki yoshlarni shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir etuvchi omillardan biri deb qarash mumkin. Qiziqish va mayllar -qiziqish deganda odamning u yoki bu predmetga qaratilgan faol bilish faoliyati tushuniladi. Kasb tanlashga nisbatan olganda qiziqishlar bu odamning muayyan mehnat sohasiga ijobiy munosabati, uning bilishga va faoliyat ko'rsatishga bo'lgan intilishidir.

Qiziqishlar o'zining mazmuni, ko'lami, uzoq davom etishi va teranligiga qarab bir-biridan farq qiladi. Qiziqishlarning mazmuni va ko'lami odamning bilim darajasini hamda har narsaga qiziquvchanligini aks ettiradi. Qiziqishlarning teranligi va uzoq vaqt davom etishi ularning barqarorligini ko'rsatadi.

Qiziqishlar o'z taraqqiyoti mobaynida bir nechta bosqichdan o'tadi. Dastlab ular vaqtincha, epizodik xarakterda bo'ladi hamda muayyan bir predmetga nisbatan ijobiy munosabatda namoyon bo'ladi. Bunday qiziqishlar rivojlantirib borilmasa, ular tez orada susayib ketadi yoki mutlaqo so'nadi. U yoki bu predmetning chuqur va muntazam ravishda o'rGANIB borilishiga, mehnat faoliyatining qiziqilgan sohasiga sinchkovlik bilan kirishib ketilishiga qarab qiziqishlar mustahkamlanib, kuchayib borishi va asta-sekin barqaror qiziqishga aylanib qolishi mumkin. Bunday qiziqishlar ko'pincha o'sib, ulg'aya borib, maylga — kishining muayan faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan intilishiga hamda mazkur faoliyat turiga muvofiq keladigan mahorat va malakalarni takomillashtirib, doimiy ravishda o'z bilimini oshirib borish uchun intilishiga aylanadi.

Agar qiziqishlar "bilishni istayman" degan formula bilan ifodalanadigan bo'lsa, mayllar "bajarishni istayman" degan formula bilan ifodalanadi. hayvonlar to'g'risidagi kitoblarni

o'qishga bo'lgan qiziqish hayvonot bog'iga borib turishni yaxshi ko'rish, "hayvonot olamida" deb ataladigan televizion ko'rsatuvning birortasini qo'ymay ko'rib borish boshqayu, hakiqiy jonivorlarni har kuni parvarish qilish natijasida xosil qilinadigan bir olam quvонch boshqadir. Biz buni quyidagi oddiy sxemada ko'rishimiz mumkin.

Faoliyat ko'rsatish mobaynida kishining mayllari faqat namoyon bo'libgina qolmasdan, shu bilan birga uning mayllari shakllanib ham boradi. Shuning uchun mehnatning har xil turi tasodifan duch kelishini kutib o'tirmay, u ishlarga ongli ravishda kirishib ketaverish kerak. Faqat turli yo'naliшhda olib borilgan faoliyatgina sizga o'z mayllaringizni bilib olish va sinab ko'rish imkonini beradi.

Shunday qilib, kasbni barqaror qiziqish, maylga muvofiq tanlash kerak ekan. O'quvchilarni kasb-hunarga qiziqishlari, moyilligi, sog'ligi va jismoniy rivojlanish kabi bir qator ko'rsatgichlarini hisobga olib quyidagi anketa so'rovnomasi (Kasb-hunar tanlash varaqasi) o'tkazish orqali ularni o'z yo'nalshilarini tanlash imkoniyatini aniqlash mumkin bo'ladi.

### XULOSA

Olib borilayotgan tadqiqotlar hozirgi davrda umumiy o'rta ta'lim muassasalarini bo'lajak o'qituvchilari (talabalari)ni tarbiyaviy faoliyat yuritishga yo'naltirilgan tajribasi, ijtimoiy faollilikni yetarli shakllanmaganligi, pedagogik jamoa bilan ishlash va ta'lim - tarbiya jarayonini tashkil etish ko'nikmalarining rivojlanmaganligini asoslaydi. Shunga ko'ra, talabalarni tarbiyaviy faoliyatga moslashuv bosqichlari motivasion, kognitivlik, integrativlik, refleksivlik mezonlarining amaliy - kasbiy faoliyat tuzilmasi bilan internallik darajasini ta'minlash bilan bog'liq jarayonlar takomillashtirilgan.

Kreativ yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga yo'naltirilgan tajriba - sinov ishlari jarayonida tarbiyaviy faoliyatga oid mavzularda seminar treninglar, davra suhbatlari, uchrashuvlar, integrativ ma'ruzalar, amaliy mashqlar, savol - javoblar, anketa so'rovlari, axborot kommunikatsiya va raqamli texnologiya hamda kredit va modulli texnologiyalardan samarali foydalanilgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo'ldoshev J.G. "Yangi pedagogik texnologiya: yo'nalishlari, muammolari, yechimlari". - «Xalq ta'limi» журнали, 1999, №4, 4-12 betlar.
2. Boltaboyev S.A., Magdiyev O.SH., Sattorov V.N., Avazboyev O.I. "Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan o'quv mashg'ulotlari". Uslubiy qo'llanma. 2002.
3. Davlatov K. "Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg'ulotlar". Pedagogika instituti o'quvchilari uchun qo'llanma. – Т.: «O'qituvchi», 1995.
4. Magzumov P.T., Antonov A.F. va boshqalar. "O'quvchilarni mehnat va kasb tanlashga tayyorlash". – Т.: «O'qituvchi», 1991.132-bet
5. G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – Т.: O'zMU, 2003. 156-b

6. Yusupova F.I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. "Xalq ta'lifi" jurnalı. 2005. №5. 90-93-b.
7. Shakhlo Khakimovna Kharatova "USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS" Science and Education ISSUE 3, March 2022;